

TUGALLANMA VA UNING LINGVOSTILISTIK TADQIQI

H.Saipova

FarDU mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7774106>

Annotatsiya: nutq, kompozitsiya, kommunikatsiya, kompozitsion-sintaktik tuzilish, tema-remat, kommunikativ markaz, tugallanma

Kalit soʻzlar: tugallanma, sintaktik kompozitsiya, semantik tur, fikrlar rivoji, nutq, kompozitiv komponent, semantik birliklar

M.M.Baxtin kompozitsion-sintaktik tuzilishning tugallanma qismiga shunday taʼrif beradi: Tugash, siz bilganingizdek, nutqning “tematik va konseptual nuqtasi”. U “odatda umumlashtiradi, xulosalarni aniq shakllantiradi, aytilganlar boʻyicha bir toʻxtamga keladi, yangi vazifalar va hal qilinishi kerak boʻlgan muammolarni belgilaydi, tinglovchilarning murojaatlarini oʻz ichiga oladi va hokazo¹”.

Darhaqiqat, tugallanma har qanday nutq koʻrinishining tugashi, muallif fikrining yakuni, xulosasi. Muallif tomonidan aytilgan oldingi fikrlarni konkretlashtiruvchi qismidir. Asar davomida boshlangan gʻoya uning yakunida xulosalanadi. Fikrlar yakuni, yaʼni tugallanma turli xil holatlarda aks etadi. Jumladan, uning semantik aspekti turli xil doiralarda aks etadi. Ha, men yoʻlga chiqishim kerak! Ha, keng dala bagʻridan oʻtib, ovulimga boraman! Tugʻilib oʻsgan yerim kuch-quvvatim! Men undan yangi-yangi boʻyoqlar topaman. Chizgan suratimning har bir boʻyogʻidan, har bir lavhasidan Doniyorning kuyi eshitilib tursin! Chizgan suratimning har bir boʻyogʻida, har bir chizigʻida Jamilaning qalbi urib tursin.

Ch.Aytmatov. “Jamila”.

Ushbu keltirilgan parcha tarkibida muallif fikrining yakuni, xulosalari aynan keltirilgan. Muallif bu oʻrinda oʻz maqsadiga tugallanma orqali erishadi.

M.M.Baxtin kompozitsion-sintaktik tuzilishning tugallanma qismiga “neytral tugatish xulosa, taxminni oʻz ichiga oladi, fikrni “muhrlaydi”, yaʼni nutqning mazmunini butunlay tugatadi, chiqishini yopadi, ekspressiv (ochiq) tugatishda esa nutq mazmuni tugatilmaydi, aksincha, hal qilinmagan holda qoldiriladi”², deya taʼrif berib oʻtadi.

Darhaqiqat, bizningcha, ham nutqning tugallanma qismi neytral (yopiq) boʻlib, muallif tomonidan har bir voqeaning yakuni va xulosa qismi batafsil yoritiladi.

Misol: Bugun ham havo ochiq.

Nizomjon bilan Zebixon Dildorni kuzatib arava izi tushgan choʻl boʻylab ketishyapti.

Ikromjon yoʻl boshida qoʻltiqtayogʻiga suyanib ularning orqasidan qarab qoldi.

Ufqda uch nuqta qoldi.

Bu – Nizomjon, bu – Dildor, bu – Zebixon.

Pardek yengil oppoq bulutlar cheti botayotgan oftob tigʻida xuddi kimxob parchadek lov-lov yonadi. Ikromjonning koʻzlarini qamashtiradi. Yonadi, yolqinlanadi.

Oʻ.Hoshimov. “Hijron kunlarida”.

Yuqorida keltirilgan parchada muallif tomonidan har bitta personajning oxirgi holati batafsil berilmoqda. Demak, neytral tugallanma nutqning oxirgi vaziyatini ham ochib beradi.

¹ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1986.

² Бахтин М.М. Ўша асар. 57-бет.

Sintaktik-kompozitsiyada nutqning ekspressiv tugallanma qismida voqealar yakuni kitobxon ixtiyoriga qoldiriladi. Bunday tugallanmalar kitobxonni turlicha fikrlashga, izlanishga, turli fantaziyalarga berilishga chorlaydi. Shuning uchun ham bu turdagi tugallanmalarning badiiy-estetik qiymati yuqori bo'ladi.

Tugallanma mavzuning yakunlanishi, fikrning umumlashtirilishi va shu umumlashtirilgan fikrdan kelib chiquvchi umumiy hukmning aytilishi bilan izohlanadi. Tugallanma – nutq tarkibidagi so'nggi qismdir.

Bugun yangi kitobim chiqdi. Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, oltmish ming kitobning hammasini onamga bag'ishladim. Lekin...

O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari".

Yuqorida keltirilgan parchada tugallanmaning ekspressiv (ochiq), ya'ni to'liq yakunlanmagan qismi keltirilgan. Yangi kitobning chiqishi va onasiga bag'ishlanganligi aytib o'tilgan. "Lekin..." deya muallifning to'xtab qolgan fikri aslida nima haqida yoki yana kimga atalgani, onasining kitobni ko'rmagani haqida yozmoqchi bo'lganmi, degan bir qancha savollar tug'iladi. Mana shu tarzda tugallanmalar fikrning xulosa qismini tinglovchi ixtiyoriga topshiradi. Har bir tinglovchi buni o'ziga xos tarzda, o'z qarashi bilan xulosalaydi. To'liq tugallanmagan (yuqoridagi parchada keltirilgan) nutq orqali har qanday tinglovchi o'zida tug'ilgan turli savollarga javob qidira boshlaydi. Natijada, bu holat tinglovchining yanada diqqatli va e'tiborli bo'lishi, shuningdek kuzatuvchanligini ham talab qiladi.

Demak, tugallanmaning har bir turi sintaktik kompozitsiyaning shakllanishi uchun birdek xizmat qiladi.

Nutq chegarasini belgilashda, ayniqsa, tugallanmaning vazifasi juda muhim, chunki tugallanma nutq muallifining ma'lum mikromavzu doirasidagi qat'iy xulosasiga teng keladi. Odatda, xulosalangan, ma'lum bir yechimni topgan mavzuga yana takror qaytilmaydi. Tugallanmadan keyin, albatta, mikromavzu o'zgaradi. Ba'zan tugallanma tarkibida "xullas", "xulosa qilib aytganda", "shunday qilib" kabi leksik-grammatik vositalar ishtirok etishi ham kuzatiladi.

Shuning hammasini xulosa qilib faqir aytmochimenki, nazoralar masiho deb ataydigan, biz mahdiy deb ulug'laydigan oliy siymo sizdarsiz, hazratim.

P.Qodirov. "Avlodlar dovoni".

To'liq tugallangan nutqning bir qancha semantik kategoriyalari mavjud. Ulardan biri xulosa so'zining tugallanma qismida ifodalanishidir. Yuqoridagi parchada ham nutq muallif tomonidan to'liq tugallangan. Ya'ni fikr xulosa qilib yakunlangan.

Xullas, gap shuki, sen mashina chaqirasan, biz o'tiramiz, keyin anhor bo'yidagi o'zing bilgan pivoxonaga boramiz.

T.Malik. "Shaytanat".

Tugallanmaning ayrim semantik turi ham uchraydiki, unda fikr shartta kesiladi-qo'yiladi. Yuqoridagi misolda ham xullas so'zini qo'llash bilan nutqqa qat'iy yakun yasaladi. Mana shunday tugallanmaning turli xil variantlarda qo'llanishi muallif o'z fikrida qat'iy ekanini ko'rsatib beradi.

Ba'zan muallifning niyati, o'z fikrlari qo'shiqlar orqali yakunlanadi. Bunda muallif ichki his-tuyg'ularini, hayotiy kechinmalarini vujudidagi bor hissiyotlarini qo'shiq orqali ifoda etadi.

U shunday dedi-yu, otiga beozor qamchi bosib uzoq yo'lga mo'ljallagan qo'shig'ini boshladi:

Daryo to'lqin, suvlar toshqin,

Undan kechib o'tolmayman.
 Otim oriq, rangim sariq,
 Manzilinga yetolmayman.
 Bir qalamqosh, ham chilvir soch,
 O'tov bezab kutar meni.
 Qandoq qilay, bu tog'lardan
 Ko'ngil uzib ketolmayman.

S.Ahmad. "Jimjitlik".

Ushbu keltirilgan parchadan ma'lum bo'ladiki, muallif olis yo'lning o'ziga yarasha zahmati borligini bilib, yo'lning azobini unutish uchun qo'shiq hirgoyi qilib, manzilga zahmatsiz yetish maqsadini ko'zlaydi. Tugallanmaning bu tarzda yakun topishi nutqning yanada jozibador bo'lishiga hamda tinglovchi kayfiyatining ko'tarilishiga olib keladi.

Yuqorida tugallanmaning bir qancha semantik turlari haqida fikr yuritdik. Tugallanmaning salbiy mazmundagi turlari ham uchrab turadi, bu esa tinglovchining ichki his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatib, kayfiyatini butkul o'zgartiradi.

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohida qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

A. Qahhor. "Bemor".

Ushbu keltirilgan misol to'liq yakunlanmagan tugallanma bo'lib, tinglovchini fikr-mulohaza yuritishga, o'ylanishga majbur qiladi. Bu turdagi salbiy tugallanmalar inson ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi, kitobxon ko'z o'ngida kasal ona va kichkina qizchasining siymosini gavdalantiradi. Bu turdagi tugallanmalar his-tuyg'ularni aks ettirish va ta'sir qilish pozitsiyasining kuchliligi bilan boshqa turdoshlaridan ajralib turadi.

Sintaktik kompozitsiya shakllanishida mana shunday vositalarning qo'llanishi ham muhim vositalardan biri ekanligini unutmaslik lozim.

Tugallanmaning yana shunday turi borki, nutq to'liq va aniq mazmun bilan yakunlanib, tinglovchining kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Mendan Oqsoqolga, Xolposh xolaga, Ra'no kelinoyimga, Fotima-Zuhra kelinoyimlarga ko'pdan-ko'p sog'inchli salom ayt. Ha, aytgandek, oyim Shomurod tog'angdan qurut berib yubordim deganlarini o'qib rosa kuldim. Tog'amni ko'rganim yo'q. Mendan dadamga, oyimga salom ayt. Sog'inchli salom bilan seni jonidan yaxshi ko'radigan Kimsan akang.

1942 yil... Yanvar

O'. Hoshimov. "Ikki eshik orasi".

Ushbu keltirilgan misol to'liq yakunlangan nutq sanaladi, bunda tinglovchi uchun hech bir savolga o'rin yo'q. Ijobiy mazmundagi bunday nutq ko'rinishlari har qanday tinglovchiga xursandchilik kayfiyatini ulashadi. Sintaktik kompozitsiyaning muhim belgisi sifatida uni mukammal shakllantira oladi.

Bundan tashqari, muallif tomonidan so'nggi so'z keltirilib, xulosa qilinadi.

Kitobga so'nggi nuqta qo'yaman.

Shunday deb o'ylayman-u, birdan yuragim huvillab qoladi. Nahotki ajralish payti keldi. Axir, men sizni o'n yil qalbmida ardoqladim. O'n yil izingizdan yurdim. Qahraton qish kechalari bo'ronning guvillashiga quloq solib sizni o'yladim.

Nizomjon, seni o'zim yaratdim. Yaratdim-u boshingga kulfatlar soldim. Olovlardan olib o'tdim. Toshqinlarga qarshi suzdirdim. Endi sen Ikromjon bo'lib yasha! Hayotdan Ikromjonning haqini ol!

So'nggi ayovsiz nuqtani qo'ydim.

S.Ahmad. "Ufq".

Ta'kidlash zarurki, biz yuqorida sanab o'tgan leksik-grammatik vositalar har doim ham nutq tugallanmasi tarkibida ishtirok etmasligi mumkin. Bunday hollarda tugallanma nutq semantikasi orqali aniqlanadi.

Nutqning sintaktik-kompozitsion tadqiqi shuni ko'rsatadiki, uning boshlanma, fikr rivoji, tugallanma kabi qismlardan tashkil topishi va bu qismlar nutqni tashkil etuvchi gaplarning ma'lum semantik-grammatik hamda uslubiy qonuniyatlar asosida shakllanuvchi va shu tartibda nutq tarkibida yashovchi murakkab sintaktik butunlik ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, nutq sintaktik qurilmalarning kichik turlari (so'z birikmasi, gap) o'zining tarkibiy qismlariga ega bo'lish bilan birga, ulardan farqli o'laroq, kompozitsion qismlar (boshlanma, fikr rivoji, tugallanma) nutqning semantik-sintaktik butunlik sifatida mavjudligini ko'rsatib turuvchi tarkibiy qismlar sifatida ham ahamiyatlidir.

References:

1. Абдуллаев Н.М. Теоритические проблемы синтаксиса азербайджанского языка. АДД. – Баку: 1984, – 232 с.
2. Abdupattoyev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. – Toshkent, 1998. – 100 b.
3. Агаева Ф.М. Синтаксис азербайджанской разговорной речи. АДД. – М., 1979. – 164 б.
4. Альберти Л.Б. Десять книг о зодчестве: В двух томах. – М.:Издательство Всесоюзной академии архитектуры 1935-1937.Перевод В.П.Зубов – Т.1.Кн шестая. Глава вторая. –178 с.
5. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: 1963. – 320 с.
6. Mamajonov A, Abdupattoyev M. Matn nazariyasi. – Farg'ona, 2016. – 103 b.

Mamajonov A., Abdupattoyev M. O'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. Monografiya. Farg'ona. – 2021. – 15